

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti qoshida Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazi tashkil etildi

Joriy yilning 14-avgust sanasida Fanlar akademiyasi Botanika institutida Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazi (TIQQM) tashkil etilishi munosabati bilan muhim tadbir bo'lib o'tdi. Ushbu tashabbus O'zbekistonda ilmiy jamiyatni texnologik va innovatsion salohiyatini oshirish yo'lidagi keng ko'lamli sa'y-harakatlarning bir qismi sifatida amalga oshirilmoqda. Tadbir Botanika instituti direktori, akademik Komiljon Tojibayevning kirish so'zi bilan boshlandi. U o'z nutqida botanika tadqiqotlariga innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilishning ahamiyati va intellektual mulk muassasalari bilan hamkorlikni mustahkamlash zarurligini ta'kidladi. Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intellektual mulk markazi" davlat muassasasi direktori B.T. Sagdullayev so'zga chiqib, innovatsiyalarni himoya qilishda intellektual mulkning o'ta muhim rolini va ilmiy tadqiqotlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi ahamiyatini ta'kidladi. Shuningdek, u yangi tashkil etilgan markazning ilmiy jamoatchilik uchun keltiradigan foydalari haqida gapirdi, xususan, innovatsion mahsulotlar yaratish va patentlashda yordam berish imkoniyatlariga e'tibor qaratdi.



Botanika instituti va Intellektual mulk markazi o'rtasidagi hamkorlik O'zbekistonda ilmiy tadqiqotlar va intellektual mulk huquqlarini himoya qilish yo'lida yangi bosqichni boshlab bermoqda. Botanika institutidagi TIQQM tadqiqotchilar uchun global patent ma'lumotlariga kirish, innovatsiyalar uchun resurslar va o'z kashfiyotlarini patentlashda yordam ko'rsatish markazi sifatida xizmat qiladi. Ushbu hamkorlik tadqiqotchilarning innovatsiyalarini himoya qilish va O'zbekistonning ilmiy-texnologik rivojlanishiga hissa qo'shish imkoniyatlarini kuchaytirishga qaratilgan.

Tadbirda Botanika instituti jamoasi faol ishtirok etdi va TIQQM tomonidan taqdim etiladigan yangi

imkoniyatlarga bo'lgan qiziqishlarini bildirdilar.